

KO'HNA XUROSONDA NAVOIYNING YANGI IZLARI

Azizullah Aral,

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O'zbek tili va adabiyoti universiteti dotsenti

Annotatsiya. Husayn Boyqaro davrida Hirotning har tomonlama yuksalishi, rivojlanishini Alisher Navoiy xizmatlarisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Temuriylar davrida amalga oshirilgan qurilishlar ko'zni qamashtiradigan darajada edi. Obodonchiliklarning oxiri ko'rinmas edi. Ulardan qo'rg'onlar, qal'alar, rabotlar, musofirxonalar, karvonsaroylar, masjidlar, xonaqohlar, shifoxonalar, madrasalar, hujralar, yo'llar, hovuzlar, sardobalar, ko'priklar, ziyoratgohlar, bozorlar, do'konlar, minoralar, qasrlar, qishloqlar, ko'shklar va boshqa ko'plab joylarni tilga olish mumkin. Quyida Navoiy ishtirokida qurilgan yoxud ta'mirlangan Hirot, Balx va Mashhad markazi va atroflaridagi obidalar bilan muxtasar tanishamiz

Kalit so'zlar: Husayn Boyqaro, Alisher Navoiy, G'iyosiddin Xondamir, obida, Xuroson, Afg'oniston, Eron, Hirot, Balx, Mashhad.

Kirish: Keyingi paytlarda qadim Xuroson yoxud hozirgi Afg'oniston va Eron hududlarida Alisher Navoiyga nisbat berilgan, bugungi kunda jahon sayyohlarining diqqatga sasovor makonlariga aylangan tarixiy binolar va qurilmalar haqida so'z borganda ular xususida G'iyosiddin Xondamir, Davlatshoh Samarqandiy, Zaynuddin Vosifiy, Faxriy Hiraviy va boshqalar bergan ma'lumotlardan tashqari, bunday obidalar haqida ayrim shoirlar she'rlarida, xalq og'zaki ijodida ham so'z boradi. Ayrim manbalarda Navoiy tomonidan qadimgi Xuroson hududlarida 370 dan ortiq xayriya binolar qurilgani qayd etiladi. Ammo ushbu bino va inshootlarning nomi, qurilgan sanasi, joyi, hozirgi ahvoli kabi belgilar xususida hech bir manbada to'liq ma'lumot ko'zga tashlanmaydi. Shu jumladan, akademik Sh.Sirojiddinov o'zining "Amir Alisher" nomli asarida 153 inshootni ko'rsatib o'tadi¹. Biz bu yozuvimizda hozirgi kunda ham xalq manfaatlarini uchun xizmat ko'rsatib turgan qadim Xuroson hududlarida joylashgan, Alisher Navoiy qurdirgan yoxud ta'mirlagn inshootlar haqida ularning hozirgi ko'rinishdagi suratlari bilan birga ma'lumot berishga harakat qilamiz.

Ali ibn Tolibga nisbat berilgan ziyoratgoh:

Balx viloyati markazi Mozori-Shahrif shaharida joylashgan Hazrati Aliga nisbat beriladigan ziyoratgoh majmuasi Sulton Husayn Boyqaro topshirig'iga binoan Amir Alisher Navoiy tomonidan qurilgan. Balxning o'sha zamon dostoniga aylangan Hazrat Aliga nisbat berilgan qabrning atrofini devor bilan o'rab, qabr ustiga gumbaz

¹ Shuhrat Sirojiddinov. Amir Alisher. 2023-yil, 174-181- betlar.

qurdirgan. Navoiy bu ishga Hirot, Samarqand, Buxoro va Balx ustakor me'morlarini jalb etadi.

Rivoyatlardan birida aytilishicha, 1454-yil Sulton Husayn Boyqaroning akasi Amir Boyqaro Balxda hukmronlik qilgan davrda Boyazid Bistomiy avlodidan bo'lgan Shamsuddin Muhammad Hindistonning Multon kutubxonasidan Sulton Sanjar davri tasviriga oid tarixni qo'lga kiritadi. Unda Balxning o'sha zamon dostoniga aylangan (Hazrat Aliga nisbat berilgan qabr) hikoya qilingan bo'ladi. Shamsuddin Muhammad o'sha bitikni Boyqaro mirzoga beradi. Shundan so'ng bu masala qayta o'rganilib, tekshirilib chiqilganidan keyin Sulton Husayn Boyqaro u yerda gumbaz va hovli qurushni Alisher Navoiyga topshiradi. Navoiy bu ishga Hirot, Samarqand, Buxoro va Balx ustakor me'morlarini jalb etadi. Ko'p o'tmay maqbara tiklanadi va uning atrofi devor bilan o'rab olinadi. Vaqt o'tishi bilan u yerda imoratlar qurilib, bozor vujudga keladi. Sulton Husayn amri bilan Hirotidan yuz oila ko'chirilib bu yerga olib kelinadi. Navoiy maqbara atrofida paydo bo'lgan shahar aholisining ichimlik suvga bo'lgan ehtiyojlarini bartaraf etish maqsadida ariq qazib suv keltiradi. Sulton Husayn Boyqaroning xizmatlari uchun kanalga "Nahri Shohiy" (Shoh anhuri) deb nom beradi. Shundan so'ng shahar kengayib, hozirgi Mozori Sharif shahri vujudga kela boshlaydi.

Mozori Sharifdagi (Hazrati Aliga nisbat berilgan maqbara majmuasi) xalq orasida "Ravzah" yoki "Ali ziyoratgohi" deb ham ataladi. Ushbu majmua texnik va qurilish nuqtayi nazaridan turli imkoniyatlarga ega bo'lib, unda 21 ta hujra, 8 darvozali bog', 5 eshikli hovli, shuningdek, madrasa, kutubxona, tahoratxona, masjid va muzey mavjud.

G'iyosiddin ibn Humomiddin Xondamir (1475-1534) ma'lumot berishicha, qadimgi Balx hududida joylashgan Xo'ja Xayrob qishlog'ida Amir Temurning o'g'li Shohrux Mirzo zamonida (1405-1447) bir maqbara yaratiladi. Qishloq aholisi ushbu maqbarani Hazrat Muhammad Payg'ambar kuyovi Ali ibn Abutolibning qabri ekanligi haqidagi rivoyat va xabarlar yaqin-uzoqlarga tarqala boshlaydi. Sulton Husayn Boyqaro (1438-1506) davrida Aliga nisbat berilgan ushbu qabrni aniqlash masalasi o'rta qadamga chiqadi. Gap shundan iboratki, Shamsiddin Muhammad nomli bir kishi Hindistonning Multon kutubxonasidan Sulton Sanjar zamonida yozilgan bir kitobni Husayn Boyqaro nomiga yuboradi. Unda Xayron qishlog'da xalifa Ali ibn Abutolib jasadi ko'milgani haqida ma'lumot yozilgan edi. O'sha vaqtda Balxda Husayn Boyqaroning ukasi Boyqaro-2 hukm surgan. Husayn Boyqaro bu gapni tekshirish uchun Balxga o'z vaziri Alisher Navoiyni yuboradi. Vazir xabar to'g'riligini sultonga yetkazadi. Sulton Husayn Balxga Ali qabriga yetgach, fors tilida mana bu baytni yozadi:

رحم کن بر حال این مشتاق ای شاه کرام

بر درت آمد گدایی بینوا سلطان حسین

Tarjimasi: (Benavo va faqir Sulton Husayn eshingga hojat tilab keldi, bu oshiqning holiga rahm qilgin, sen ey karam qilguvchi shoh)². Shundan so‘ng u yerda bir salobatli gumbaz qurilib, atrofida bozor, musofirxona, madrasa, masjid barpo etiladi. Ko‘p o‘tmay shaharni sug‘orish maqsadida anhor tortiladi va unga “Nahri shohiy” (Sulton anhuri) deb nom beriladi.

Alisher Navoiydan keyin hazrati Ali ziyoratgohi yonida Abdul Mo‘minxon yana masjid va xonaqo qurdi. “Yetti qaynar” nomli dosh qozonni Buxorodan Mozori-Sharif olib keltirdi. Keyinchalik Shayboniylardan bo‘lgan Vali Muhammadxon maqbara atrofida bog‘ yaratdi. Ashtarxoniylardan bo‘lgan Balx hokimlari Muqimxon va Subhonqulixon ziyoratgohning ko‘rkam qiyofasiga hissa qo‘shganlar. Eng so‘nggi o‘zgarishlarda 1994-yilda Marshal Abdulrashid Do‘stim tomonidan maqbaraga kirish darvozasi tepasiga 14 kilogramm oltin ishlatilgan o‘yib yozilgan kalima lavhi o‘rnatildi.



(Hazrati Aliga nisbat berilgan ziyoratgohning 2016-yildagi ko‘rinishi)

Nahri Shohiy (Sulton anhuri)

Alisher Navoiy Balx cho‘llarida Hazrat Aliga nisbat berilgan qabrni tiklaganidan keyin u yerda paydo bo‘lgan shahar aholisini ichimlik suvi bilan ta‘minlash maqsadida nahr (ariq) qazib suv keltirgan. Rivoyatlarga ko‘ra bu yerda ushbu qishloqning vujudga kelishida Sulton Husayn Boyqaroning yo‘llanma va xayirxohligini inobatga olib, unga “Nahri Shohiy” (Shoh anhuri) deb nom bergan. Shundan so‘ng qishloq kengayib, hozirgi Mozori-Sharif shahri vujudga kelgan. Bu xususda ham xalq orasida juda ko‘p hikoya-u dostonlar mavjud.


² Ishonch To‘ra. Navoiyni anglash sori. 2023-yil, 141.



“Nahri Shohiy” (Sulton anhoiri)ning hozirgi ko‘rinishidan bir qismi.

Sarpul g‘isht ko‘prigi:

Alisher Navoiy tashabbusi bilan qurilgan ushbu ko‘prikkaga ganj shirasi, ohak va somon kuli uzoq muddat birga qorilib, kattaligi 24 ga 24 santimetr va qalinligi 5 santimetr bo‘lgan pishiq g‘isht ishlatilgan.



Sarpul g‘isht ko‘prigining 2009-yildagi ko‘rinishi.

Xurosonning qadim shaharlaridan bo‘lgan Juzijonon zamon o‘tishi bilan Anbor yoki Anbir nomi bilan atala boshlagan. Xuroson daryosi ushbu hududni sharq va g‘arb qismlarga bo‘lgani bois, Sulton Husayn Boyqaro hokimiyati davrida Anborning sharqiy va g‘arbiy mintiqalarini bir-biriga bog‘lash uchun katta ko‘prikkaga qaror qilingan. Mazkur ko‘prikkaga Boyqaroning buyrug‘i va Navoiy tashabbusi bilan bunyod etilgan. Shundan keyin Anbor shahri Saripul (ko‘prikkaga boshi) nomi bilan atala boshlagan. Ushbu ko‘prikkaga haqida 1976-yilga qadar xalq og‘zaki ijodida 500 yil oldin qurilganligini aytilib kelingan. Ammo tarixchi Xondamirning Alisher Navoiy sharhi holi, ilmiy-adabiy va bunyodkorlik asarlari haqida yozgan “Makorim ul-axloq” kitobining Britaniya muzeyida saqlanayotgan qo‘lyozmasi ushbu ko‘prikkaga

“Puli Juzijonon” (Juzijonon ko‘prigi) Mir Alisher Navoiyning xayriya inshootlari jumlasidan ekanligi ma‘lum bo‘ldi [M.Ya‘qub Vohidiy Juzijoniy].

Oqina sardobasi:

Alisher Navoyga nisbat berilgan “Oqina sardobasi” (Usti gumbazli g‘isht hovuz), Afg‘onistonning Foryob viloyati Xonchorbog‘ tumanida joylashgan. Pishiq g‘ishtdan qurilgan bu Sardobaning chuqurligi 16 metr, gumbaz balandligi ham yer yuzidan 16 metr (Sardoba sathidan qumbazigacha 32 metr), suv kosasining kengligi esa 10 metrdan iborat. Ushbu sardoba Afg‘onistonning Turkmaniston chegrasiga yaqin hududda joylashgan bo‘lib, qish faslida sardobada to‘plangan qor va yomg‘ir suvlari butun yuz bo‘yi atrofdagi dehqon, cho‘pon va yo‘lovchilarni suv bilan ta‘minlaydi. Bu Sardoba haqida xalq og‘zaki ijodida shunday “Savzivon” qo‘shiqlar to‘qilgan:

*Yorinning yo‘llariga so‘yay tovuq,
Oqina sardobasi unga yovuq.
Yorginam sardobadan suv keltirar,
Navoiy sardobasi suvi sovuq.*



“Oqina sardobasi” Xonchorbog‘/Faryob, 2010-yil

Bobo Vali g‘isht havuzi:

Alisher Navoyga nisbat berilgan Afg‘onistonning Foryob viloyati Andxo‘y tumanida joylashgan bu hovuz Bobo Vali ziyoratgohi majmuasi hovlisida joylashgan. Majmua o‘z ichiga madrasa, masjid, ziyoratgoh, hovuz, quduq va bir qator hujralarni qamrab oladi. Hovuzning hozirgi ko‘rinishi 21x21 metr, chuqurligi 6 metr va suv hajmi 3380 kub metrdan iborat. Hozirgi kunda ham mahalliy aholi hovuz suvidan ichimlik suvi sifatida foydalanadi. Ushbu hovuz haqida Afg‘oniston o‘zbek taniqli shoir, yozuvchi va tarixchilaridan Muhammad Amin Matin Andxo‘iy o‘zining 2016-yili nashr etilgan “Bog‘i aram” she‘riy to‘plamida shunday yozadi: “Bobo Vali

(alayhi rahma) madrasasining sahnida bir katta hajmli hovuz joylashgan. Ushbu suv ombori bo‘lgan berka “Makorim ul-axloq” muallifi Xondamirning aytishicha, Mir Alisher Navoiy buyrug‘i bilan qurilgan xayriya binolar safida qayd etilgan”. Shoir M. Amin Matin bu haqda mana bu ruboiyni yozgan:


*Vasfingga qalam, Andxo ‘yim, til cho ‘zgan,
Yaproq uza shuhrating yozib ko ‘rkuzgan.
Faxr etgali arzir obid oting, chu kim,
Bobo Vali hovuzini Navoiy tuzgan.³*



(“Bobo Valiy hovuzi” [Fikriy 1967, 44-45].)

Namakdon:

Hirot shahrining shimolida Gozurgoh tumanida Xo‘ja Abdulloh Ansoriy maqbarasi yaqinida joylashgan bu bino tashqaridan 12 burchak, ichkaridan esa 8 burchak qilib qurilgan. Navoiy vazirlik maqomidan iste’foga berganidan so‘ng bu yerda olim-ulamolar, shoir-shuarolar bilan muloqot qilishgan. “Tuz saroyi” 2008-yilda “Og‘a Xon jamg‘armasi” yordami asosida afg‘onistonlik me‘morlar tomonidan qayta ta‘mirlandi. Bu hayratlanarli obida Hirotning temuriylar davri yorqin namoyandasi Amir Alisher Navoiy yodgorligi deb nom olgan.



³ Matin Andxuiy. Bog‘i aram. 2008-yil, 93-bet.

(Tuz saroyi yoki “Namakdon”, Hirot, 2016-yil ko‘rinishi).

Ansoriy maqbarasi:

Arab va fors tillarida ijod qilgan shoir va donishmand Xo‘ja Abdulloh Ansoriy (1006-1088) maqbarasi Hirot shahrining shimolida Gozargoh tumanida joylashgan. Maqbara Hirot Sulton Husayn Boyqaro zamonida Alisher Navoiy tomonidan qayta ta’mirlangan.



(Xo‘ja Abdulloh Ansoriy maqbarasi. Hirot, 2014-yil ko‘rinishi).

Ixlosiya majmuasi:

Alisher Navoiy tomonidan Hirot shahridagi Injil daryosi bo‘yida Navoiyning o‘z shaxsiy hisobidan qurilgan, xonaqoh, madrasa, shifoxona va diniy muassasa majmuasidir. Bu majmua minglab talabalar uchun ilm-ma’rifat, san’at va madaniyat o‘chig‘i bo‘lgan. U yerda ilm bilan shug‘ullangan talaba-ustozlarning oziq-ovqat, kiyim-kechak va boshqa ehtiyojlari Navoiy zimmasida bo‘lgan.⁴

⁴ Fikriy Saljuqiy. Gozargoh. Kabul, 1962, 48 bet.



(“Ixlosiya” majmuasi shu hududlarda qurilgan. Ammo afsuski bu majmuadan bizgacha hechqanday nishona yetib kelmagan. Rasmda Navoiy zamonida mavjud bo‘lgan o‘nta buyuk minoradan qolgan beshtasi aks ettirilgan).

Abu Alvalid maqbarasi:

Abu Alvalid (Azadoniy) nomi bilan mashhur bo‘lgan Ahmad ibn Abu Ruja maqbarasi Hirot shahrining shimoli-g‘arbiy qismidagi Azadon qishlog‘ida joylashgan. Abu Al Valid islom ilmi, hadis va tasavvuf olamining ulug‘ zotlaridan biri bo‘lgan. Azadoniy dafn etilgan juda katta ayvonga ega qubbali qabr Hirot temuriylar maktabi uslubida Alisher Navoiy sa‘y-harakatlari bilan qurilgan.



(Abu Alvalid “Azadoniy” maqbarasi. Azadon qishlog‘i, Hirot)

Mir Abdulvohid Shahid maqbarasi:

Mir Abdulvohid Shahid maqbarasi eski Hirot shahrining janubida joylashgan Firuzobod qishlog‘ida bo‘lib, u birinchi marta 941-yilda Shayx Abu Nasr tomonidan qurilgan. Ammo undan taxminan 565 yil vaqt o‘tishi bilan vayronaga aylangan. Keyin 1489-yili ushbu buzuq maqbara Amir Alisher Navoiy sa‘y-harakati bilan temuriylar me‘morchiligi uslubida bunyod etilib, devorlari ganjlangan va ajoyib naqshlar chizilgan.



(Mir Abdulvohid Shahid maqbarasi. Firuzobod qishlog‘i, Hirot)

Hirot jome’ masjidi:

Amir Alisher Navoiy temuriylar davri yodgorliklarining aksariyat qismini ta’irlashda faol qatnashgan. Jumladan, Hirot tarixiy jome’ masjidi ham 1498-yili Navoiy tomonidan ta’irlangan. Masjid binosi mustahkam gumbazga ega bo’lib, unda Behzod uslubidagi rasmlarni ko’rish mumkin. Masjidning koshinlaridagi yozuvlar Amir Alisher Navoiy bitig‘i nomi bilan mashhur.




(Hirot Jome’ masjidi, Hirot shahri, 2021-yil)

Abdulloh ibn Moviya maqbarasi:

Said Abdulloh ibn Moviya maqbarasi Hirotning qadim tarixiy binolaridan bo’lib, u Sulton Husayn Boyqaro zamonida Alisher Navoiy tomonidan qayta tiklangan. Hazrati Muhammad nabirasiga nisbat beriladigan ushbu ziyoratgoh Hirot Musallosi

yaqinida joylashgan. Unda Kamoliddin Behzod uslubidagi naqishlar va xattatliklar ko‘zga tashlanadi. Maqbaraning ichki ko‘rinishi sakkiz burchak bo‘lib, har burchakda bir ayvon ko‘zga tashlanadi.



(Said Abdulloh ibn Moviya maqbarasi, Hirot shahri, 2021-yil)

Abu Nasr Porso masjidi:

Xoja Abu Nasr Porso masjidi Balx viloyatidagi temuriylar davrining buyuk yodgorliklaridan biridir. Bu masjid Alisher Navoiy buyrug‘i bilan Abu Nasr Porso qabri yonida sakkiz burchak ko‘rinishida qurilgan. Vaqt o‘tishi bilan masjid tomining vayron bo‘lgan qismlari 1569-yili Abdul Mo‘minxon tomonidan qayta ta‘mirlanib, masjidga yangi bezaklar qo‘shilgan. Abu Nasr Porso masjidi kvadrat ko‘rinishda bo‘lib, masjid uchta kirish eshik, tokchalar, kichik dumaloq va yo‘l-yo‘l ustunlardan iborat. Masjid gumbaz firuza rangda bo‘lib, eshiklari o‘ymakorlik qilingan.



(Abu Nasr Porso masjidi, Balx tumani, 2010-yil)

Abdulrahmon Jomiy maqbarasi:

Mavlono Abdulrahmon Jomiy XV asrning mashhur shoiri. U 1478-yilda Hirotida vafot etgan va o‘sha yerga dafn etilgan. Shayboniy va Safaviylar qo‘shinlari bosqinida butunlay vayron bo‘lgan Jomiy qabri Alisher Navoiy farmoni bilan Hirot temuriylar me‘morchiligi uslubida qayta tiklangan. 1950-yillarda Muhammad Zohirshoh hukmronligi davrida Hirot hokimi Abdullaxon Malikiyor tashabbusi bilan Jomiy qabriga ayvon solindi, ikkita baland minora qurildi va maqbara yonida masjid barpo etildi.



(Abdurahmon Jomiy maqbarasining 2021-yildagi ko‘rinishi)

Zarnegar uyi:

Zarnegar uyi Hirot temuriylarining yorqin davri yodgorliklaridan biri bo‘lib, u Sulton Husayn Boyqaro davrida Amir Alisher Navoiy sa‘y-harakatlari bilan 1484-yilda Xo‘ja Abdulloh Ansoriy qabri yonida qurilgan. O‘sha davr rassomlari ushbu uyni bezashda gumbaz ichidagi rasmlar va naqshlarda tilla suvi va ko‘k rangli bo‘yoqdan foydalangan. Shu bois bu bino Zarnegar uyi deb ataladi. Bu muhtasham qasr aylana gumbaz shaklida qurilgan bo‘lib, uning shimol tomonidagi baland ochiq ayvon binoning kirish eshigi hisoblanadi.



(Zarnegar uyi “Qasri Zarnigor”, Hirot, 2020)

Ziyoratgoh masjidi:

Hirot viloyati Guzara tumani g‘arbida hozirgacha saqlanib qolgan ayvon va minorali Ziyoratgoh masjidi Hirot Jome’ masjididan keyin ikkinchi katta masjid hisoblanadi. Ushbu masjid 1484-yilda Sulton Husayn Boyqaro davrida Alisher Navoiy tashabbusi bilan qurilgan. To‘rt gektar maydonni egallagan masjid to‘rtta katta ayvon va bir nechta kichik ayvonchalardan iborat. 36,85 metr balandlikka ko‘tarilgan bu minoralarning o‘rta qismi chiroyli naqsh va rang-barang koshinlar bilan bezatilgan. Gumbaz va ayvonlari esa pishiq g‘ishtdan qurilgan. Masjidning hovlisi to‘rt burchak bo‘lib, unda pishiq g‘ishtdan chiroyli hovuz yasalgan. Binoning to‘rt tomonida to‘rtta darvozasi bor. Bu yerda asrlar davomida kishilar diniy bilim olishgan.



(Ziyoratgoh masjidi, Hirot/Guzara tumani, 2022-yil)

Sangi-Bust raboti:

Hamdulloh Mustufiy Qazviniy (1860-1928 tarixchi, jug‘rofiydon), g‘aznaviylar davrida Tus hokimi bo‘lgan Arslon Jozeb binolari xarobalari ustiga qurilgan “Sangi bust raboti”ni Amir Alisher Navoiyga nisbat bergan. Ushbu rabot Mashhaddan 30 kilometr uzoqlikda joylashgan. Hozir u Xurosoni Razaviy madaniy meros anjumani qaramog‘i ostiga olingan. So‘ngi 10 yildan buyon “Sangi Bust” raboti dunyo sayyohlarining diqqat-e‘tiborini o‘ziga jalb qilib kelmoqda.

Eronning “Sayohat va qo‘l san‘ati” Xurosoni Razaviy madaniy meros anjumani ma‘lumotnomasida Alisher Navoiyga nisbat berilgan “Sangi bust” raboti mustahkan va baland devorlar bilan o‘rab olingan. To‘rt tomonida to‘rtta kuzatuv va qo‘riq minoralari mavjud. Ushbu binoning kirish darvozasi Isfahondagi Mahyor

JAHON NAVOIYSHUNOSLIGI: KECHA VA BUGUN

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya to‘plami

karvonsaroyiga juda o‘xshash. Bu bino tuzilmalari Temuriylar davri Islom me‘morchiligining mashhur namunalari hisoblanadi.

Eronning “Xuroson” gazetasida (2010.05/16) Husayn Razaviyning yozishicha, asrlar davomida yaxshi foydalanib kelingan, Ipak yo‘li markazida joylashgan.



(Sangi Bust rabotining hovlisi. Mashhad, 2015-yil, Aftondil Erkinov fotosi)

“Sangi bust” raboti hashamatli karvonsaroy 1980-yillarda Iroqlik asirlarni saqlash makoniga aylantirilgan. Eron-Iroq urushidan keyin bu tarixiy bino afg‘onistonlik qochqinlarni vaqtinchalik saqlab turish uchun xizmat qilgan. So‘ngra zindonga aylantirilib, mahbuslarning kundalik kasb-hunar bajarish qarorgohi sifatida xizmat qila boshlagan.



“Sangi Bust” raboti oldiga o‘rnatilgan bu lavhda mazkur rabot Alisher Navoiyga nisbat berilgani rasman qayd etilgan.

Temuriylar davriga oid ushbu “Sangi bust” raboti, Eronning Frimon shahari markaziy qismidagi Sangi Bust qishlog‘ida joylashgan. Bu tarixiy bino 2004-yil 7-

avgustda (11047) raqami bilan Eron milliy yodgorliklaridan biri sifatida ro‘yxatga olingan.

Attor Neyshaburiy maqbarasi:

Attor Neyshaburiy maqbarasi Temuriylar davrida XV asrda Amir Alisher Navoiy tomonidan Neyshaburiy qabri ustiga qurilgan tarixiy bino. Maqbara 1970-yillarda Ikkinchi Pahlaviy davrida qayta ta‘mirlangan. Attor qabri Eronning hozirgi Neyshaburdagi Erfon ko‘chasida joylashgan. Maqbaraning hozirgi binosi sakkiz burchakli, to‘rt eshikli, koshinkor gumbazli, balandligi 3 metrdan iborat.



Imom Rizo maqbarasi ayvoni:

Amir Alisher Navoiy qurdirgan antiqa ayvonlardan biri Imom Rizo maqbarasi ayvoni bo‘lib, uning tashqi ko‘rinishi koshinli, ichi oltin g‘ishtlar bilan bezatilgan. Ayvon eshigining tepasi, o‘ng va so‘l ustunlariga “Maryam” suvrasi tushirilgan, tepa qismiga sariq koshin bilan Ko‘fiy xatida Yosin surasi yozilgan. Yozuvlarning zamon o‘tishi bilan o‘rtadan ketgan qismi 1654-yilda Muhammad Rizo Emomiy Esfahoniy tomonidan qayta yangilangan. Tarixchi olim Muhammad Aslam Afzaliy “Temuriylar davrida Hirot” nomli asarida ushbu ayvon xususida shunday yozadi: “Ayvonni qayta ta‘mirlash jarayonida uni qurdirgan Amir Alisher Navoiy nomi ham, xattot nomi ham o‘rtadan olib ketilgan”⁵.

⁵ Aslam Afzaliy. Temuriylar davrida Hirot. 2011-yil, 152-bet.



(Imom Rizo maqbarasi ayvoni, Mashad, 2023-yil)

Qosim al-Anvor maqbarasi:

Shoh Qosim al-Anvor Tabriziy maqbarasi Amir Alisher Navoiy tomonidan Eronning Langar-i Jom qishlog‘ida g‘isht gumbaz shaklida qurilgan antiqa bino. Ushbu bino 1976-yili (1061) raqami bilan Eronning milliy boyliklaridan biri sifatida ro‘yxatga olingan.



(Shoh Qosim al-Anvor maqbarasi, Eron/Turbati Jom, 2020)

Adabiyotlar:

1. Sirojiddinov Shuhrat. Amir Alisher. Toshkent: Adabiyot, 2023.
2. Aslam Afzaliy. Temuriylar davrida Hirot. Intishorot Ahroriy, Hirot, 2011.

3. Fikriy Saljuqiy Heraviy. Gozurgoh. Kabul, 1962.
4. Vohidiy Juzijoniy M. Ya’qub. Amir Alishir Navoiy “Foniy” hayoti, ijodi, obidalari, nasriy va nazmiy asarlari namunalari. Kobul, 1968-yil.
5. Arol A. Alisher Navoiyga nisbat beriladigan yangi obidalar // Payomi donishkada, Anvori ilm, Tafakkuri tarix. 2022, № 2(1). – Panjakent, 2022-yil, 3-6-betlar.
6. Nur Ahroriy Abdulali. Amir Alisher Navoiy. Hirot, 2014.
7. Narayval Roziq. Mir Alisher Navoiy. Kobul, 2019.
8. Korgar Abdulloh. Amiri donishmand (Nizomiddin Alisher Navoiy). Pokiston/Peshovar, 2004.
9. Habibiy Abdulhai. Temuriylar davri san’ati. Kobul, 1977.
10. Bahra Vali Shoh. Hirot Xuroson nigini. Hirot, 2002.